EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH
Innovative Academy Research Support Center
UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.uz




# MURODTEPA MAYDONIDA O‘TKAZILGAN SINOV ISHLARINING NATIJALARI.

**Rabbimov Jaxongir Shodmonkulovich**[1]
[1]QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi assistent-o’qituvchisi
Telefon: +998990640638
**Komilov Botir Asqar o‘g‘li**[2]
[2]QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi assistent-o’qituvchisi
Telefon: +998994452026
https://doi.org/10.5281/zenodo.7053971

## ARTICLE INFO

Received: 01st September 2022
Accepted:03rd September 2022
Online: 06th September 2022

## KEY WORDS

*OPK, IPG, aerizatsiya, perforatsiya, texnik suv, sement ko‘prigi, ZPKO-89.*

## ABSTRACT

*Murodtepa maydoni Buxoro-Xiva neftgazli viloyati (BXNGV) O‘zbekistonda neft va gaz zaxiralarini oshirishning asosiy manbalari hisoblanadi. O‘rganilayotgan izlov qudug‘ini yakunlovchi bosqichlaridan biri mahsuldor yotqiziqlarni sinashdir. Burg‘ilash jarayonida obyektni sinash har bir izlov qudug‘ida kollektorning mahsuldor jinslariga qarshi OPK va IPG yordamida olib boriladi.*

Murodtepa maydoni ma’muriy jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Qorako‘l tumanida joylashgan.

Tuzilma teknonik jihatdan Chardjouy ko‘tarilmasi, shimoliy-g‘arbiy qismida Qandim ko‘tarilmasi bilan janubdan Atamurod koni oralig‘ida joylashgan. Yaqin shaharlardan Olot shahri va Qorako‘l temiryo‘l stansiyasi bo‘lib, maydondan shimoliy-sharqda 110 km uzoqlikda joylashgan.

Murodtepa tuzilmasi avvalgi yillarda seysmorazvedka УЧН-2Д ishlari ma’lumotlarini tahlil qilishda 2015 yilda aniqlangan.(Egamov V.S., AO «Uzbekgeofizika», filial «BGE»).

Murodtepa tuzilmasi ikkita gorizont bo‘yicha: yuqori karbonat yura $T_6(J_3,o+km)$ davri yotqiziqlari va yuqori terrigen yura $T_7(J_{1+2})$ davri yotqiziqlari bo‘yicha izlov burg‘ilashga tayyorlangan.

O‘rganilayotgan maydon pasttepalikli keng rivojlangan qumtepaliklardan iborat. Mahalliy relyefning mutloq qiymati +170-180м oralig‘ida o‘zgarib turadi. Yer usti suv manbalari bevosita mavjud emas.

Murodtepa maydonidan Janubiy-G‘arbda Turkmaniston respublikasining davlat chegarasi o‘tadi. Janubiy -G‘arbga qarab 30-50 km uzoqlikda esa Amudaryo daryosi o‘tadi. Burg‘ulash ishlarida ishlatiladigan texnik suv uchun chuqurligi 200-250 metrli suv quduqlari bor.

Huduning iqlimi keskin kontinental bo‘lib. Yoz fasli juda issiq va qish fasli sovuq, kam qorli. Yozda harorat $50^0$C ga yetadi, qishda $-20^0$C gacha bo‘ladi. Ba’zida qumli bo‘ronni qo‘zg‘atuvchi tezligi 20-22 m/sek yetadigan kuchli shamol bo‘lib turadi.

Yog‘ingarchilik miqdori yiliga (125-130 mm/yil) ga yetadi. Yog‘ingarchilik, asosan, qish-bahor davriga to‘g‘ri keladi.

Maydongacha keladigan yo‘llar anchagina sifatsiz tuproq yo‘llardan tashkil topgan bo‘lib, avtomobillar harakatlanishi uchun

yil davomida ancha qiyinchiliklar tug‘diradi.
Aholi punktidan burg‘ilash jihozlarining yuk mashinalarida yoki maxsus mashinalarda quyidagi uzoqliklardan keltiriladi.

1-jadval.

| Punktdan | Murodtepa maydonigacha bo‘lgan masofa, m | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | Shundan | |
| | | Asfaltli | Gruntli |
| Olot shaxri(“Olot NGQE” bazasi) | 96 | 42 | 54 |
| Buxoro shahri(“Amirabod PGI”bazasi) | 137 | 78 | 59 |
| Qorakul temir yo‘l bekati | 110 | 40 | 70 |

**Murodtepa №1**

***1-ob’ekt.*** XVII gorizont 2777-2772 metr oralig‘ida ZPKO-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko‘ra qatlamdan gaz oqimi olindi. Gazni chiqish miqdori: Ø5mm shayba orqali $P_{тр}$=6 atm $P_{ztr}$=9 atm $Q_{gaz}$=5,0 ming.м$^3$/sutkani tashkil qildi. Keyingi ob’ektni sinash uchun sement ko‘prigi o‘rnatilmasdan o‘tildi.

***2-ob’ekt.*** XIX gorizont 2795-2790 metr oralig‘ida ZPKO-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko‘ra qatlamdan gaz oqimi olindi. Gazni chiqish miqdori: Ø14mm shayba orqali $P_{tr}$=31 atm $P_{ztr}$=46 atm $Q_{gaz}$=102,0 ming.м$^3$/sutkani tashkil qildi. Quduqqa 2790-2754 metr oraliqlariga sement ko‘prigi o‘rnatildi. Sement ko‘prigining shipi 2755 metrni tashkil qildi va keyingi ob’ektga o‘tildi.

***3-ob’ekt.*** XVII gorizont 2752-2748 м, 2744-2740 м, 2730-2725м oraliqlarida ZPKO-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko‘ra quduqda neft va gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqdagi suyuqlik sathi bir necha marta o‘lchanganda 1540 metrni tashkil qildi. Quduqdan suyuqlik sathi va tubidan solishtirma og‘irligi $Y_c$=1,01 g/sm$^3$ bo‘lgan texnik suv olindi. Neft va gaz belgilari kuzatilmadi. Keyingi ob’ektni sinash uchun sement ko‘prigi o‘rnatilmasdan o‘tildi.

***4-ob’ekt.*** XVIII pr gorizont 2696-26788м, 2674-2669м oraliqlarida ZPKO-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko‘ra qatlamdan solishtirma og‘irligi $Y_c$=1,06 g/sm$^3$ bo‘lgan qatlam suvi olindi. Suvni chiqish miqdori: Nd=1463м Qc=2,688 м3/sutkani tashkil qildi. Gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqqa 2400-2300 metr oraliqlariga sement ko‘prigi o‘rnatildi. Sement ko‘prigining shipi 2315 metrni tashkil qildi va keyingi ob’ektga o‘tildi.

***5-ob’ekt.*** XV-3 gorizont 2241-2235 м oralig‘ida ZPKO-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko‘ra qatlamdan ulchab bo‘lmaydigan miqdordagi kuchsiz gaz oqimi (0,3m fakel) olindi. Quduqni texnik suv bilan tuldirilib teskari yuvish orqali, quduqdagi tubidan solishtirma og‘irligi $Y_c$=1,07 g/sm$^3$ bo‘lgan qatlam suvi namunasi olindi. Suvni chiqish miqdori: Nd=977 metrda Qsuv=2,304 m3/sutkani tashkil qildi. Quduqqa 2235-2200 metr oraliqlariga sement ko‘prigi

o‘rnatildi. Sement ko‘prigining shipi 2203 metrni tashkil qildi va keyingi ob’ektga o‘tildi.

***6-ob’ekt.*** XV-2 gorizont 2197-2192 м oralig‘ida ZPKO-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko‘ra qatlamdan quvur ichi orqali ulchab bo‘lmaydigan miqdordagi kuchsiz gaz oqimi (0,3m fakel) olindi. Quduqni texnik suv bilan tuldirilib yuvilganda, quduqdagi tubidan solishtirma og‘irligi $Y_c$=1,05 g/sm$^3$ bo‘lgan qatlam suvi namunasi olindi. Quduqqa 2190-2149 metr oraliqlariga sement ko‘prigi o‘rnatildi. Sement ko‘prigining shipi 2154 metrni tashkil qildi va keyingi ob’ektga o‘tildi.

***7-ob’ekt.*** XV-1 gorizont 2145-2136 m oralig‘ida ZPKO-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko‘ra qatlamdan solishtirma og‘irligi $Y_c$=1,05 g/sm$^3$ bo‘lgan qatlam suvi namunasi olindi. Suvni chiqish miqdori: Nd=1162,5 metrda Qсув=1,728 м3/sutkani tashkil qildi. Gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqqa 2100-2000 metr oralig‘iga konservatsion sement ko‘prigi o‘rnatilishi bilan sinov ishlari nihoyasiga yetkazildi.

**Murodtepa №2**

***1-ob’ekt.*** XIX gorizont 2863-2856 metr oralig‘ida RDX-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko‘ra gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqdagi suyuqlik sathini bir necha marta o‘lchanganda 1972 metrni tashkil qildi. Quduqni texnik suv bilan tuldirilib teskari yuvish orqali, quduqdagi suyuqlik sathi va tubidan solishtirma og‘irligi $Y_c$=1,01 g/sm$^3$ bo‘lgan texnik suv olindi. Keyingi ob’ektni sinash uchun sement ko‘prigi o‘rnatilmasdan o‘tildi.

***2-ob’ekt.*** XIX gorizont 2782-2768 metr oralig‘ida NMX-54 zaryadi bilan 1 pog. metrga 16 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko‘ra gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqni texnik suv bilan tuldirilib teskari yuvish orqali, quduqdagi suyuqlik sathi va tubidan solishtirma og‘irligi $Y_c$=1,06 g/sm$^3$ bo‘lgan qatlam suvi olindi. Quduqda qatlamdan keluvchi suv yo‘lini yopish maqsadida 2798-2780 metr oralig‘iga sement ko‘prigi o‘rnatildi. Sement ko‘prigining shipi 2780 metr chuqurlikda NK quvurlarini tushirish orqali aniqlandi va 2775-2768 metr oralig‘i NMX-54 zaryadi bilan 1 pog. metrga 16 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko‘ra gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqdagi suyuqlik sathini bir necha marta o‘lchanganda 2153 metrni tashkil qildi. Quduqni texnik suv bilan tuldirilib teskari yuvish orqali, quduqdagi suyuqlik sathi va tubidan solishtirma og‘irligi $Y_c$=1,01 g/sm$^3$ bo‘lgan texnik suv olindi. Keyingi ob’ektni sinash uchun sement ko‘prigi o‘rnatilmasdan o‘tildi.

***3-ob’ekt.*** XVIII gorizont 2738-2734 m, 2728-2721 m, 2708-2704m oraliqlarida NMX-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 16 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqni texnik suv bilan tuldirilib teskari yuvish orqali, quduqdagi suyuqlik tubidan solishtirma og‘irligi $Y_c$=1,12 g/sm$^3$ bo‘lgan qatlam suvi olindi. Quduqqa 2735-2694 metr oraliqlariga sement ko‘prigi o‘rnatildi. Sement ko‘prigining shipi 2695 metrni tashkil qildi va keyingi ob’ektga o‘tildi.

***4-ob’ekt.*** XVII gorizont 2460-2456m oralig‘ini NMX-54 zaryadi bilan 1 pog. metrga 16 tadan RK bog‘lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga

EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH
Innovative Academy Research Support Center
UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.uz

gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqni texnik suv bilan tuldirilib teskari yuvish orqali, quduqdagi suyuqlik tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,06 g/sm$^3$ boʻlgan qatlam suvi olindi. Quduqqa 2452-2403 metr oraliqlariga sement koʻprigi oʻrnatildi. Sement koʻprigining shipi 2406 metrni tashkil qildi va keyingi obʼektga oʻtildi.

***5-obʼekt.*** XV-2 gorizont 2190-2186m oraligʻini NMX-54 zaryadi bilan 1 pog. metrga 16 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqni texnik suv bilan toʻldirilib teskari yuvish orqali, quduqdagi suyuqlik tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,06 g/sm$^3$ boʻlgan qatlam suvi olindi. Quduqqa 2180-2154 metr oraliqlariga sement koʻprigi oʻrnatildi. Sement koʻprigining shipi 2158 metrni tashkil qildi va keyingi obʼektga oʻtildi.

***6-obʼekt.*** XV-1 gorizont 2149-2139m oraligʻini NMX-54 zaryadi bilan 1 pog. metrga 16 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqni texnik suv bilan tuldirilib teskari yuvish orqali, quduqdagi suyuqlik tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,06 g/sm$^3$ boʻlgan qatlam suvi olindi. Quduqqa 2140-2090 metr oraliqlariga likvidatsion sement koʻprigi oʻrnatildi, sement koʻprigining shipi 2092 metrni tashkil qildi va sinov ishlari nihoyasiga yetkazildi.

**Murodtepa №3**

***1-obʼekt.*** XIX gorizont 2878-2875 metr oraligʻida PP-26 SPG-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqni texnik suv bilan tuldirilib teskari yuvish orqali, quduqdagi suyuqlik sathi va tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,05 g/sm$^3$ boʻlgan qatlam suvi olindi. Quduqqa 2875-2862 metr oraliqlariga sement koʻprigi oʻrnatildi. Sement koʻprigining shipi 2863 metrni tashkil qildi va keyingi obʼektga oʻtildi.

***2-obʼekt.*** XIX gorizont 2853-2849 metr oraligʻida PP-26 SPG-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra gaz belgilari kuzatilmadi. Quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,10 g/sm$^3$ boʻlgan suyuqlik namuna uchun olindi. Qatlamdan keluvchi suyuqlikni chiqish miqdori $H_д$=1493 metrda $Q_{suyuq}$=9,576 м$^3$/sutkani tashkil qildi. Quduqqa 2849-2833 metr oraliqlariga sement koʻprigi oʻrnatildi. Sement koʻprigining shipi 2835 metrni tashkil qildi va keyingi obʼektga oʻtildi.

***3-obʼekt.*** XIX gorizont 2824-2817 metr oraligʻida PP-26 SPG-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra gaz belgilari kuzatilmadi. Quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,13 g/sm$^3$ boʻlgan suyuqlik namuna uchun olindi. Qatlamdan keluvchi suyuqlikni chiqish miqdori $H_д$=1371,5 метрда $Q_{суюқ}$=16,254 м$^3$/sutkani tashkil qildi. Quduqqa 2825-2805 metr oraliqlariga sement koʻprigi oʻrnatildi. Sement koʻprigining shipi 2805 metrni tashkil qildi va keyingi obʼektga oʻtildi.

***4-obʼekt.*** XIX gorizont 2797-2794 м, 2792-2787 metr oraliqlarida PP-26 SPG-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra gaz belgilari kuzatilmadi. Qudukdagi suyuklik sathi bir necha marta ulchanganda 1766 metrni tashkil kildi. Quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,01 g/sm$^3$ boʻlgan texnik suv olindi. Quduqda texnik suv bilan qatlam qabul qiluvchanligi sinab koʻrildi. Qatlam

R=220 atm bosim ostida texnik suvni qabul qilmadi. Keyingi ob'ektni sinash uchun sement koʻprigi oʻrnatilmasdan oʻtildi.

***5-ob'ekt.*** XVIII gorizont 2778-2773 м, 2769-2766 metr oraliqlarida PP-26 SPG-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra gaz belgilari kuzatilmadi. Quduq tubidan solishtirma ogirligi $Y_c$=1,07 g/sm$^3$ boʻlgan suyuqlik namuna uchun suv olindi. Qatlamdan keluvchi suyuqlikni chiqish miqdori $H_д$=1330,5 metrda $Q_{suyuk}$=8,316 м$^3$/sutkani tashkil qildi. Quduqqa 2764-2717 metr oraliqlariga sement koʻprigi oʻrnatildi. Sement koʻprigining shipi 2719 metrni tashkil qildi va keyingi ob'ektga oʻtildi.

***6-ob'ekt.*** XVIII gorizont 2704-2702 м, 2701-2698, 2684-2680 metr oraliqlarida PP-26 SPG-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqdagi suyuqlik sathi ulchanganda 1514 metrni tashkil kildi. Quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,01 g/sm$^3$ boʻlgan texnik suv olindi. Keyingi ob'ektni sinash uchun sement koʻprigi oʻrnatilmasdan oʻtildi.

***7-ob'ekt.*** XVIII gorizont 2658-2655 м, 2566-2562, 2557-2554 metr oraliqlarida PP-26 SPG-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqdagi suyuqlik sathi ulchanganda 1174 metrni tashkil kildi. Quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,01 g/sm$^3$ boʻlgan texnik suv olindi. Keyingi ob'ektni sinash uchun sement koʻprigi oʻrnatilmasdan oʻtildi.

***8-ob'ekt.*** XVII gorizont 2540-2538 m, 2523-2518, 2505-2502 metr oraliqlarida PP-26 SPG-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqdagi suyuqlik sathi ulchanganda 1518 metrni tashkil kildi. Quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,01 g/sm$^3$ boʻlgan texnik suv olindi. Keyingi ob'ektni sinash uchun sement koʻprigi oʻrnatilmasdan oʻtildi.

***9-ob'ekt.*** XV-1 gorizont 2152-2147 metr oraligʻini PP-26 SPG-89 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra qatlamdan kuchsiz gaz oqimi solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,06 g/sm$^3$ boʻlgan suyuqlik bilan olindi. Gazni chiqish miqdori: Ø6mm shayba orqali $P_{tr}$=9 atm $P_{ztr}$=23 atm $Q_r$=5,22 ming. м$^3$/sutkani tashkil qildi. Quduqqa 2150-2100 metr oraliqlariga likvidatsion sement koʻprigi oʻrnatildi, sement koʻprigining shipi 2102 metrni tashkil qildi va sinov ishlari nihoyasiga yetkazildi.

**Murodtepa №4**

***1-ob'ekt.*** XVIII gorizont 2848-2844 м, 2842-2839 metr oraliqlarida SPG-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra quduqda quvur orti va quvur ichi orqali ulchab boʻlmaydigan miqdordagi kuchsiz gaz oqimi chiqishi kuzatildi. Quduqni texnik suv bilan tuldirilib teskari yuvish orqali, quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,01 g/sm$^3$ boʻlgan texnik suv namunasi olindi. Keyingi ob'ektni sinash uchun sement koʻprigi oʻrnatilmasdan oʻtildi.

***2-ob'ekt.*** XVIII gorizont 2813-2806 metr oraliqlarida SPG-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra qatlamdan gaz oqimi olindi. Gazni chiqish miqdori: Ø8mm shayba orqali $P_{tr}$=19 atm $P_{ztr}$=25 atm $Q_r$=19,248 ming м$^3$/sutka, Ø7mm shayba orqali $P_{tr}$=22 atm

$P_{ztr}$=31 atm $Q_r$=17,873 ming м³/sutkani tashkil qildi. Quduq usti statik bosimini aniqlash maqsadida yopildi. Bunda $P_{tr.st}$=183 atm $P_{ztr.st}$=185 atm tashkil qildi. Quduqqa 2807-2787 metr oraliqlariga sement koʻprigi oʻrnatildi. Sement koʻprigining shipi 2789 metrni tashkil qildi va keyingi obʼektga oʻtildi.

***3-obʼekt.*** XVII gorizont 2781-2778 metr oraliqlarida SPG-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra quduqda gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqdagi suyuqlik sathi ulchanganda 1550 metrni tashkil qildi. Quduq texnik suv bilan toʻldirilib yuvilganda quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,01 g/sm³ boʻlgan texnik suv olindi. Quduqda texnik suv bilan qatlam qabul qiluvchanligi sinab koʻrildi. Qatlam R=220 atm bosim ostida texnik suvni qabul qilmadi. Keyingi obʼektni sinash uchun sement koʻprigi oʻrnatilmasdan oʻtildi.

***4-obʼekt.*** XVIII gorizont 2761-2756 м, 2746-2741 metr oraliqlarida SPG-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra quduqda gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqdagi suyuqlik sathi ulchanganda 1632 metrni tashkil qildi. Quduq texnik suv bilan toʻldirilib yuvilganda quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,01 g/sm³ boʻlgan texnik suv olindi. Quduqda texnik suv bilan qatlam qabul qiluvchanligi sinab koʻrildi. Qatlam R=220 atm bosim ostida texnik suvni qabul qilmadi. Keyingi obʼektni sinash uchun sement koʻprigi oʻrnatilmasdan oʻtildi.

***5-obʼekt.*** XVIII gorizonт 2730-2725 metr oraliqlarida SPG-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra quduqda gaz belgilari kuzatilmadi. Quduq texnik suv bilan toʻldirilib yuvilganda quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,09 g/sm³ boʻlgan qatlam suvi olindi. Quduqqa 2745-2715 metr oraliqlariga sement koʻprigi oʻrnatildi. Sement koʻprigining shipi 2718 metrni tashkil qildi va keyingi obʼektga oʻtildi.

***6-obʼekt.*** XVIII gorizont 2712-2709 м, 2704-2701 metr oraliqlarida SPG-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra quduqda gaz belgilari kuzatilmadi. Quduq texnik suv bilan toʻldirilib yuvilganda quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,13 g/sm³ boʻlgan qatlam suvi olindi. Quduqqa 2715-2691 metr oraliqlariga sement koʻprigi oʻrnatildi. Sement koʻprigining shipi 2692 metrni tashkil qildi va keyingi obʼektga oʻtildi.

***7-obʼekt.*** XVIII gorizont 2686-2678 metr oraliqlarida SPG-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bogʻlanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga koʻra quduqda gaz belgilari kuzatilmadi. Quduqdagi suyuqlik sathi ulchanganda 1745 metrni tashkil qildi. Quduq texnik suv bilan tuldirilib yuvilganda quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,01 g/sm³ boʻlgan texnik suv namunasi olindi. Quduqda 2682 - 2678m oraligi SGP - 73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan teshik PK boglamasi orqali kayta perforatsiya kilindi. Qatlamga 2 м³ 15% tuzli kislota eritmasi bilan ishlov berildi. Qatlam R=200 atm bosim ostida kislota eritmasini qabul qilmadi. Qatlam tuzli kislota eritmasi qatlam bilan reaksiyaga kirishishi uchun 2 soat davomida reagirovaniyaga qoʻyildi. Aerizatsiya natijasiga koʻra quduqda gaz belgilari kuzatilmadi. Quduq texnik suv bilan tuldirilib yuvilganda quduq tubidan solishtirma ogʻirligi $Y_c$=1,01 g/sm³ boʻlgan texnik suv namunasi olindi. Keyingi

ob'ektni sinash uchun sement ko'prigi o'rnatilmasdan o'tildi.

***8-ob'ekt.*** XVa gorizont 2334-2331 m, 2318-2315, 2301-2298 metr oraliqlarida SPG-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog'lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko'ra quduqda quvur ichi va quvur orti orqali ulchab bo'lmaydigan miqdordagi kuchsiz gaz oqimi chiqishi kuzatildi. Quduq texnik suv bilan to'ldirilib yuvilganda quduq tubidan solishtirma og'irligi $Y_c$=1,07 g/sm$^3$ bo'lgan qatlam suvi olindi. Quduqqa 2347-2312 metr oraliqlariga sement ko'prigi o'rnatildi. Sement ko'prigining shipi 2314 metrni tashkil qildi va keyingi ob'ektga o'tildi.

***9-ob'ekt.*** XV-3 gorizont 2311-2308 м, 2287-2284 м, 2280-2277 м, 2258-2254 metr oraliqlarida SPG-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog'lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko'ra quduqda quvur ichi va quvur orti orqali ulchab bo'lmaydigan miqdordagi kuchsiz gaz oqimi chikishi kuzatildi. Quduq texnik suv bilan tuldirilib yuvilganda quduq tubidan solishtirma og'irligi $Y_c$=1,06 g/sm$^3$ bo'lgan qatlam suvi olindi. Quduqqa 2282-2245 metr oraliqlariga sement ko'prigi o'rnatildi. Sement ko'prigining shipi 2250 metrni tashkil qildi va keyingi ob'ektga o'tildi.

***10-ob'ekt.*** XV-2 gorizont 2244-2240 m, 2208-2206 metr va XV-1 gorizont 2145-2142 metr oraliqlarida SPG-73 zaryadi bilan 1 pog. metrga 20 tadan RK bog'lanmasi orqali perforatsiya qilindi. Aerizatsiya natijasiga ko'ra quduqda quvur ichi va quvur orti orqali o'lchab bo'lmaydigan miqdordagi kuchsiz gaz oqimi chiqishi kuzatildi. Quduq texnik suv bilan to'ldirilib yuvilganda quduq tubidan solishtirma og'irligi $Y_c$=1,08 g/sm$^3$ bo'lgan qatlam suvi olindi. Quduqqa 2150-2100 metr oraliqlariga konservatsion sement ko'prigi o'rnatildi, sement ko'prigining shipi 2102 metrni tashkil qildi va sinov ishlari nihoyasiga yetkazildi.

## References:

1. Murodtepa maydonining geologik loyihasi. Toshkent 2014 y.
2. В.Г.Каналин, М.Г.Praванесов, В.П.Шугрин. Нефтегазопромысловая геология и гедрогеология. Москва. Недра 1985.
3. И.Х.Абрикосов, С.Н. Гутман. Обшая, нефтяная и нефтепромысловая геология. Москва. Недра 1982,
4. М.А.Жданов. Нефтегазопромысловая геология и подсчет запасов нефти и газа. Москва. Недра 1986.
5. Элияшевский И.В. Типовые задачи и расчеты в бурении. Москва. Недра 1982 год.
6. Михеев А.В, Пурушин В.М. Охрана труда. Москва. Недра 1987 год.
7. Mavlonov A. V. Neft gaz koni geologiyasi. Darslik, Toshkent, Fan, 1992
8. Abidov A.A. Neft va gaz geologiyasidan ruscha-o'zbekcha izohli lug'at. Toshkent. 2000 yil.
9. X.I.Xalismatov, I.P.Burlutsskaya, R.T.Zakirov, Геология нефти и газа, Toshkent, TDTU, 2006 g.

10. Y.Ergashev, F.S.Abdullayev, M.H.Qodirov, I.X.Holismatov. Neft va gaz konlari geologiyasi. Darslik, Toshkent, 2008

11.Rabbimov J.Sh., Dononov J.U. Tabiiy gazni dastlabki tayyorlashda jihozlarning ishonchliligiga erishish. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences Scientific Journal.Volume 2 Issue 3 ISSN 2181-1784 Impact factor:5.947 Uzbekiston 2022/03 https://www.oriens.uz/uz/journal/article/tabiiy-gazni-dastlabki-tayyorlashda-jihozlarning--ishonchliligiga-erishish/

12.Turdiyev Sh.Sh., Rabbimov J.Sh. Qatlamdan kelayotgan oqimni jadallashtirish maqsadida qatlamga kislotali ishlov berish (Murodtepa maydoni misolida). EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Uzbekiston 2022/03/12 https://zenodo.org/record/6480734#.YoyFptxBxdg

13.Komilov B.A., Rabbimov J.Sh. Qizota (Yoshlik-II) maydonining tektonik tuzilishini o’rganish. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Uzbekiston 2022/04/15 https://zenodo.org/record/6480734#.YoyFptxBxdg